O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori Sh.S.Sharipov
____________________
202___yil “___”__________

# LOGOPEDIYA
## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 - Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 - Ta’lim |
| **Talim yo‘nalishi:** | 60112700 – Maxsus pedagogika (Logopediya) |

**Jizzax-2022**

| Fan/modul kodi<br>351LDSM04 | | O'quv yili<br>2022-2023 | Semestr<br>3 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Logopediya(dizartriya. Sistemali nutq buzilishlari) | Ma'ruza-30<br>Amaliy-30<br>Jami-60 | | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalarini to'g'ri tanlay olish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga nutq buzilishlarni keng tarqalganligi, alomatlari, darajasini aniqlash, nutq buzilishlarini pedagogik diagnostikasi, metodlari, bartaraf etish metodikalarini o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1. Dizartriya. (2 soat)**

Dizartriya haqida tushuncha. Dizartriya nutq buzilishini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Dizartriyaning sabablari. Dizartriya – bolalar tserebral falaji kasalligining belgisi sifatida.

**2. Dizartriya tasnifi. (2 soat)**

Asosiy shakllari va ularning belgilari. Dizartrik bolalarning salomatligi, psixik va nutq taraqqiyotining o'ziga xos xusuiyatlari. Artikulyatsiya (talaffuzining aniqligi), umumiy va mayda motorikaning (nutqga dahldor va dahldor bo'lmagan) buzilishi.

**3. Dizartriyani bartaraf etishda korrektsion-pedagogik ishlar tizimi. (2 soat)**

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korrektsion-logopedik ishlarning vazifalari, korrektsion ish metodlari va usullari. Dizartriyada nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish. Tovushlar talaffuzini korrektsiyalash.

**4. Sistemali nutq buzilishi. Alaliya (2 soat)**

Nutqning sistemali (surunkali) rivojlanmaganligi. Alaliyani o'rganish tarixi. Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari. Alaliyani tasniflash.

**5. Motor alaliya. (2 soat)**
Alaliyada nutqning lektsik-grammatik va fonetik tomondan buzilishi. Alalik bolalarning nutqni o'zlashtirishidagi qiyinchiliklari. Motor alalik bolalar nutqining leksik-grammatik va fonetik-fonematik tavsifi.
**6. Motor alaliyaning nutqiy bo'lmagan belgilari. (2 soat)**
Motor alaliyada korrektsion ta'sir tizimi. Motor alalik bolalar nutqining leksik-grammatik va fonetik-fonematik tavsifi. Motor alaliyaning nutqiy bo'lmagan belgilari.
**7. Sensor alaliya. (2 soat)**
Sensor alaliyaning asosiy belgilari. Sensor alaliyali psixologik-pedagogik va nutqiy hususiyatlari. Sensor alaliyaning zaif eshitish va aqli zaiflik bilan qiyosiy tavsifi. Sensor alaliyada korrektsion ta'sir tizimi.
**8. Afaziya (2 soat)**
Uning sabablari va mexanizmi. Afaziyani o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Afaziya shakllari va ularning namoyon bo'lish sabablari.
**9. Akustik-gnostik sensor afaziya (2 soat)**
Nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o'qish va yozuvdagi buzilishlar. Akustik-mnestik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o'qish va yozuvdagi buzilishlar.
**10. Semantik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, og'zaki va yozma nutq buzilishi. (2 soat)**
Afferent-motor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o'qish va yozuvdagi buzilishlar. Efferent-motor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o'qish va yozuvdagi buzilishlar.
**11. Dinamik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o'qish va yozuvdagi buzilishlar. (2 soat)**
Bolalarda afaziyaning kechishi xususiyatlari. Afaziyada korretsion-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari. Reabilitatsion ta'limning tamoyil va metodlari. Afaziyaning barcha shakllarini bartaraf etishda korrektsion-logopedik ish tizimi va uning o'ziga xos husustyatlari.
**12. Yozma nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish. (2 soat)**
Yozma nutqdagi kamchiliklarini o'rganish tarixi. O'qishning psixologik akti. Meyorda o'qishni o'zlashtirish jarayoni. Tovush-harf jarayonini o'zlashtirish jarayoni. Bo'g'inlab o'qish bosqichi. So'zlarni butun o'qish. Sintetik o'qish bosqichi.
**13. Dislektsiya. Dislektsiya tasnifi. (2 soat)**
Disleksiya – bu markaziy psixik funksiyaning shakllanmaganligi va qatiy harakterdagi xatolarning qaytarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'qish jarayonining qismi. Turli mezonlarga asoslangan. Uning namoyon turlariga qarab, ular og'zaki va matnni ajratadilar.
**14. Disgrafiya. (2 soat)**
Yozuv jarayonining psixik-fiziologik qurilishi. Yozuv jarayonini operatsiyalari. Disgrafiya tasniflari. O'qish va yozishdagi kamchiliklari bo'lgan bolalarni tekshirish.



**15. Yozma nutqdagi kamchiliklarning oldini olish. (2 soat)**
Yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ishlar metodikasi.

**III.2. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar maxsus muassasalarda maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini va rivojlanishini o'rganish, mashg'ulotlarni tahlil qilishga, bolalarning tibbiy-pedagogik hujjatlarini tahlil qilishga, psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzishga, bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazishga o'rganadilar.

**III.1. Amaliy mashg`uloti mavzulari**

**1-mavzu. Dizartriya. Sabablari, mexanizmi, belgilari. (2 soat)**
**Reja:**
1. Dizartriya shakllari va ularning nomoyon bo'lishi.
2. Dizartriyada nutqning talaffuz tomoni buzilishi.
3. Logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish.

**2-mavzu. Dizartriyani bartaraf etishda logopedik ishlar. (2 soat)**
**Reja:**
1. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish.
2. Individual va guruhli mashg'ulotlar.
3. Logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish.

**3-mavzu. Dizartrik bolalarning tibbiy pedagogik xujjatlarini o'rganish va tahlil qilish. (2 soat)**
**Reja:**
1. Tovushlar talaffuzi kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar nutqini mashg'ulotlarda kuzatish va tahlil etish.
2. Dizartrik bolalarning tibbiy pedagogik xujjatlarini o'rganish
3. Logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish.

**4-mavzu. Dizartriyada nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish. (2 soat)**
**Reja:**
1. Tovushlar talaffuzini korrektsiyalash.
2. Dizartriyada nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish yo'llari
3. Logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish.

**5-mavzu. Sistemali nutq buzilishi. (2 soat)**
**Reja:**
1. Alaliya sabablari va mexanizmi.
2. Alaliya shakllari.
3. Alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar shaxsining o'ziga xos xususiyatlari.

**6-mavzu. Nutq rivojlanmaganligini turli darajalarida logopedik ishning o'ziga xos xususiyatlari. (2 soat)**
**Reja:**
1. Motor alaliyada logopedik ishning mazmuni va uni tashkil qilish.
2. Nutqiy va nutqga dahldor bo'lmagan kamchiliklarni bartaraf erish yo'llari.

3. Nutq kartasini tuzish va tahlil qilish

**7-mavzu. Motor alaliyani bartaraf etishda logopedik-korrektsion ish. (2 soat)**

**Reja:**

1. Motor alaliyani bartaraf etishda logopedik-korrektsion ish tizimi.
2. Motor alaliyani bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish
3. Nutq kartasini tuzish va tahlil qilish

**8-mavzu. Sensor alaliyada tashqi nutqini tushunish va uni idrok etish xususiyatlari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Sensor alaliyada tashqi nutqini tushunchasi.
2. Sensor alaliyada idrok etish xususiyatlarining ahamiyati
3. Nutq kartasini tuzish va tahlil qilish

**9-mavzu. Sensor alaliyani bartaraf etishda korrektsion-logopedik ish. (2 soat)**

**Reja:**

1. Sensor alaliyani bartaraf etish yo`llari
2. Maxsus muassasalarda alalik bolalar nutqini, logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish.
3. Nutq kartasini tuzish va tahlil qilish

**10-mavzu. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar guruhidagi bolalar nutqini mashg'ulotlarda kuzatish va tahlil etish. (2 soat)**

**Reja:**

1. Nutq bog'chasida bolalarning tibbiy-pedagogik hujjatlari bilan tanishish.
2. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar guruhidagi bolalar nutqini mashg'ulotlarda kuzatish va tahlil etish
3. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarga nafas mashqlar

**11-mavzu. Afaziya. Afaziya sabablari va mexanizmi. Afaziya shakllari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Afaziya tushunchasi.
2. Afaziya sabablari va mexanizmi.
3. Afaziya shakllari.

**12-mavzu. Afaziyani bartaraf etishda korrektsion tarbiya ishlarini asosiy yo'nalishlari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Reabilitatsion ta'limning tamoyil va metodlari.
2. Noverbal kommunikatsiyani tiklash metodlari.
3. Verbal kommunikatsiyani tiklashda noverbal metodlardan faydalanish.

**13-mavzu. Afaziyani bartaraf etishda korrektsion-pedagogik ish. (2 soat)**

**Reja:**

1. Fonematik eshituvni tiklash.



2. Nutqning leksik tarkibini tiklash va ekspressiv agrammatizmni tugatish.
3. O'qish, yozish va yozma nutqni tiklash.

**14-mavzu. Yozma nutq kamchiliklari. O'qish va yozishdagi kamchiliklar. (2 soat)**

**Reja:**

1. Yozma nutq kamchiliklari.
2. O'qish va yozishdagi kamchiliklar.
3. Nutq kartasini tuzish va tahlil qilish

**15-mavzu. Yozma nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish mazmuni. (2 soat)**

**Reja:**

1. Mashg'ulotlarni tashkil etish, rejalashtirish.
2. Yozuvda logopedik xatolarning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Maxsus muassasalarda logoped mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil etish.

## IV.Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar.

### IV.1. Mustaqil ta'limni o`zlashtirish tartibi.

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim shakllari

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir modul bo'yicha o'qituvchi rahbarligida (O'RTMI) va mustaqil tarzda (TMI) quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (O'RTMI)

Ushbu fanda me'yorlashtirilmaydigan O'RTMI shakllari rejalashtirilgan bo'lib, ular har bir amaliy mashg'ulot bo'yicha yakuniy hisobot shaklida qabul qilinadi. O'RTMI amaliy mashg'ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg'ulotdan so'ng masofaviy ta'lim platformasida O'RTMI uchun o'qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi. Ushbu fanda masofaviy ta'lim platformasida quyidagi O'RTMI shakllarini qo'llash nazarda tutilgan:

1) Q/A (savollarga cheklangan hajmda javob yozish).
2) Chart (jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish).
3) Link (Internet-havolaga annotatsiya yozish).
4) Review (berilgan manbaga sharh yozish).
5) SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish).
6) Google Apps (Google ilovalarda guruh bo'lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash).
7) Interview (boshqalarning muammoga nisbatan fikrini o'rganish).
8) LabReport (laboratoriya ishlari bo'yicha hisobot tayyorlash)

O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari hajmi

| T.r | shakli A ma | Amaliy mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha O‘RTMI mazmuni | soat |
|---|---|---|---|
| 1. | Q/A | mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga 5-6 bet hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va mavzuni ochib berishiga e’tiborga olinadi. | 2 |
| 2. | Link | Talaba “ ” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi. | 2 |
| 3. | Chart | “ ” mavzusi bo‘yicha variantlardagi jadvallarni 50 gacha so‘z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so‘zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog‘lovchi so‘z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o‘zgarish dinamikasi va izohning to‘g‘riligi hamda to‘liqligi inobatga olinadi. | 2 |
| 4. | Link | Talaba “ ” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi. | 2 |
| 5. | Q/A | “ ” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e’tiborga olinadi. | 2 |
| 6. | Interview | Talaba “ ” mavzusi bo‘yicha o‘zgalarning shu muammoga nisbatan fikrlarini o‘rganadi va audio, video yozuvlar shaklida taqdim etadi. Talabaning ishini baholashda uning vaqt reglamentiga rioya qilganligi, suhbatdoshini to‘g‘ri tanlashi, savollarni suhbatdoshining javobidan kelib chiqib berishi va uni yo‘naltirishi, original javob olishi, tashqi ko‘rinish va fon, mulozamat elementlari inobatga olinadi. | 2 |
| 7. | Q/A | “ ” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e’tiborga olinadi. | 2 |
| 8. | Review | “ ” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi. | 2 |
| 9. | Review | “ ” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi. | 2 |
| 10. | Link | Talaba “ ” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi. | 2 |
| 11. | SWOT | Talaba “ ” mavzusi bo‘yicha SWOT-tahlilni amalga oshiradi. | 2 |
| 12. | Google Apps | Talabalar “ ” mavzusi bo‘yicha hamkorlikda Google-taqdimot tayyorlashadi. | 2 |
| 13. | Chart | Berilgan mavzusi bo‘yicha variantlardagi jadvallarni 200 gacha so‘z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so‘zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog‘lovchi so‘z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o‘zgarish dinamikasi va izohning to‘g‘riligi hamda to‘liqligi inobatga olinadi. | 2 |
| 14. | Interview | Talaba berilgan mavzusi bo‘yicha o‘zgalarning shu ma’ruzaga nisbatan fikrlarini o‘rganadi va audio, video yozuvlar shaklida taqdim etadi. Talabaning ishini baholashda uning vaqt reglamentiga rioya qilganligi, suhbatdoshini to‘g‘ri tanlashi, savollarni suhbatdoshining javobidan kelib chiqib berishi va uni yo‘naltirishi, original javob olishi, tashqi ko‘rinish va fon, mulozamat elementlari inobatga olinadi. | 2 |
| 15. | SWOT | Talaba berilgan mavzus bo‘yicha SWOT-tahlilni amalga oshiradi. | 2 |
| | | **Jami** | **30** |

**Talabaning mustaqil ishlari (TMI)**

Ushbu mustaqil ish shakllariga o‘qituvchi tomonidan hech qanday ko‘rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabaning o‘zi qiziqishlaridan kelib chiqib ularni amalga oshiradi. Fanni o‘qitishda quyidagi TMI shakllari qo‘llaniladi.

Talabaning mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi

| T. r. | TMI shakllari va mazmuni soat | soat |
|---|---|---|
| 1. | **Research**. Talabalar Internetdan va boshqa manbalardan mustaqil ravishda ma'lumot izlashadi va tarqatma materiallarni o'rganishadi. Har bir ma'ruza bo'yicha kamida 2 soat shug'ullanish maqsadga muvofiq. | 10 |
| 2. | **Forum**. Talabalar fan mashg'ulotlari bo'yicha topshiriqlarni bajarish mobaynida masofaviy ta'lim platformasida o'zaro muloqot qilishadi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta'lim platformasida qayd qilib boriladi. | 6 |
| 3. | **FAQ** (ko'p beriladigan savollar forumi). Talaba o'z muammosi bo'yicha maslahat olish uchun masofaviy ta'lim platformasida maslahat tizimiga (glossariyga) yoki o'qituvchiga murojaat qiladi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta'lim platformasida qayd qilib boriladi. | 4 |
| 4. | **Test**. Talaba har bir modul yakunida o'z bilimlarini mustahkamlash uchun masofaviy ta'lim platformasidagi o'rgatuvchi testlarni ishlaydi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta'lim platformasida qayd qilib boriladi. | 10 |
| | **Jami** | **30** |

**IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Dizartriyani nutq kamchiligini ilmiy-nazariy tomonidan o'rganishi
2. Dizartriya bolalar tserebral paralichining simptomi ekanligini.
3. Dizartriyada nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish.
4. Dizartriyada tovushlar talaffuzini korrektsiyalash
5. Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari.
6. Alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar shaxsining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Alaliyani o'rganishning anatomo-fiziologik aspektlari.
8. Motor alaliyada defekt strukturasi.
9. Motor alaliyada nutqni lektsiko-grammatik va fonetiko-fonematik tomondan buzilishi.
10. Motor alaliyada olib boriladigan logopedik ish sistemasini yoritib bering (asosiy printsiplar, usullar, yo'nalishlar va davrlar bo'yicha
11. Maxsus muasassalarda alalik bolalar nutqini, logopedik mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish
12. Sensor alaliyada nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari.
13. Afaziologiya tarixini o'rganish.
14. Afaziya sabablari va mexanizmi. Afaziya shakllari.
15. Afaziyani bartaraf etishda korrektsion tarbiya ishlarini asosiy yo'nalishlari.
16. Afaziyada reabilitatsion ta'limning tamoyil va metodlari.
17. Afaziyada noverbal kommunikatsiyani tiklash metodlari.



18. Afaziyada verbal kommunikatsiyani tiklashda noverbal metodlardan faydalanish.
19. Afaziyani bartaraf etishda korrektsion-pedagogik ish.
20. Afaziyada fonematik eshituvni tiklash.
21. Afaziyada nutqning leksik tarkibini tiklash va ekspressiv agrammatizmni tugatish.
22. Afaziyada o'qish, yozish va yozma nutqni tiklash.
23. Bolalarda akustik diqqat va o'quvni rivojlantirish va tekshirish uchun ovozli predmetlar naborini tanlang.
24. Yozma nutq kamchiliklari.
25. Yozma nutq buzilishlarini tarixini o'rganish.
26. O'qish va yozishdagi kamchiliklar.
27. Yozma nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish mazmuni.
28. Yozma nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni tashkil etish, rejalashtirish.
29. Yozuvda logopedik xatolarning o'ziga xos xususiyatlari.
30. Maxsus muassasalarda logoped mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil etish.

**Logopediya fanidan taxminiy kurs ishi mavzulari**

1. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga umumiy tasnif va ularning umumiy tavsifi.
2. Bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularning bartaraf etish metodlari.
3. Sigmatizm va uni bartaraf etish metodlari.
4. R va L tovushlari talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish metodlari.
5. Periferik nutq apprtidagi nuqsonliklar va ularni tovush talaffuzlarini shakllanishga ta'siri.
6. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoillarini nutqiy nuqsonlikka bog'liq tomonlarini asoslash.
7. Til orqa (k,g,x y) tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.
8. Dizatriya bolalar miya falajlanish kasalligini simtomi sifatida.
9. Dizartriya tashifi va uning shakllari.
10. Chuqur til orqa ( q, g') tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish metodlari.
11. Jaranglatish va jarangsizlantirish defektlari va ularni bartaraf etish metodlari.
12. Fonetik – fohnematik nutq buzilishi va uni bartaraf etish metodlari
13. Tug'ma yoriqlikni bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta'siri.
14. Rinolaliyani bartaraf etishda operatsiyagacha va operatsiyadan keyin olib boriladigan ishlar.
15. Rinolliyani bartaraf etishda logopedik ritmika va davolov mashqlarini

| | |
|---|---|
| | korrektsion ahamiyati.<br>16. Ochiq rinolaliyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash yo'llari.<br>17. Ovoz buzilishlari va uni bartaraf etish usullari.<br>18. Afaziya va uning turli shakllarida nutqni tiklash usullari<br>19. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korrektsion - logopedik ishlarning vazifalari,korrektsion ish metodlari va usullari.<br>20. Dizartrik bolalarni savodga tayyorlash<br>21. Dizartrik bolalar umumiy va mayda qo'l motorikasining o'ziga xos xususiyatlari.<br>22. Alaliya va uning barcha turlarida nutqni shakllantirish metodlari.<br>23. Alalik bolalar fonematik idrokining o'ziga xos xususiyatlari.<br>24. Psevdo bulbar dizartriyaning sabablari va belgilari,<br>25. Rinolalik bolalar nutqinig o'ziga xos xususiyatlari va olib boriladigan korrektsion ishlar.<br>26. Ovozning hosil bo'lish mexanizmi va nuqsonlik holatlarini bartaraf etish usullari.<br>27. Bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy va logopedik ishlarning rivojlantirishda o'yin faoliyati<br>28. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tovush talaffuzini buzilish xususiyatlari va bartaraf etish usullari.<br>29. Motor alaliyada nutqiy va nutqiy va bo'lmagan motorikani buzilish belgilari.<br>30. Sensor afaziyada eshituv idrokini buzilishi va uni nutq rivojlanishiga ta'siri.<br>31. Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi.<br>32. Dizartriyadagi nuqsonlik holatlarni bartaraf etishda tibbiy – pedagogik hamkorlik ishlarini o'rni.<br>33. Bolalar ovozini rivojlnishi va ularda ovoz buzilishini bartaraf etish usullari.<br>34. Sensor alaliyada nutq eshituv idrokini buzilish xususiyatlari va ularni bartraf etish usullari.<br>35. Tovush talaffuzi buzilishini bartaraf etishda maxsus tamoillarni qo'llanilishning korrektsion ahamiyati. |
| 3. | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;<br>• talaba rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus korrektsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini ilmiy asoslagan |



| | |
|---|---|
| | holda to'g'ri tanlay olishi, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nuqsonlarini tasniflash, korrektsiyalash, maxsus adabiyotlarni taxlil etish, bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun didaktik materiallarni tanlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;<br>• talaba korrektsion pedagogik jarayonni nazariy-amaliy taxlil etish, ta'limni tashkil etish shakllari, usullarini amalda samarali qo'llash, ota-onalar bilan ishlash, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lim-tarbiya nazariyasini amalda qo'llash malakasiga e***ga bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqni bajarish.<br>**Talabalar bilimini baholash.**<br>Fan bo'yicha talabalar bilimi 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan joriy nazorat va oraliq nazorat uchun 50 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball ajratiladi.<br>**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida amaliy mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqqan holda umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br>Jami 15 ta amaliy mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br>1-joriy nazorat 15 ball.<br>2-joriy nazorat 15 ball.<br>**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'uloti o'quv soatidan kelib chiqqan holda o'tkaziladi (2-4 kreditli fanlarda 1 marta, 6 kreditli fanlarda 2 marta oraliq nazorat o'tkaziladi). Oraliq nazorati 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibiga mustaqil ta'lim topshirig'i kiritiladi.<br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.<br>**Yakuniy nazorat (chiqish nazorati)**<br>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy |

| | |
|---|---|
| | nazoratdagi o‘zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to‘plagan talabalar fanni o‘zlashtirgan hisoblanadi. |
| 6. | **VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ayupova M.Yu. Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007, 2011 y.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Хрестоматия по логопедии. Владос.: М.: 1997 г. 1 том.<br>2. Хрестоматия по логопедии. Владос.:М.: 1997 г. 2 том.<br>3. Shomaxmudova R.Sh., Mo‘minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. O‘qituvchi. T.: 1993 y.<br>4. Логопедия. (под ред. А.С.Волковой). М.: Владос. 2003 г.<br>5. Muminova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O‘qituvchi 1993 y.<br>6. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 488 b.<br>7. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016. - 56 b.<br>8. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 48 b.<br>9. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 104 b.<br>10. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.<br>11. Бал, Н.Н. Актуалные проблемы диагностики речевых нарушений у детей /Н.Н. Бал //Акмуални питання корекцийнои освити (педагогичн и науки).: зб. науков. прац /за ред. В.М. Синова, О.В. Гаврилова. – Вип. 1. – Камянец-Подилский: ПП “Медобори-2006”, 2010. – С. 22-29.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. www.tdpu.uz<br>2. www.pedagog.uz<br>3. www.edu.uz<br>4. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)<br>5. http://ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal |
| 7 | fanining o`quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universitet Kengashining 202__ yil “___”_________dagi ____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun ma’sular:**<br>X.S.Akramova – JDPU “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri p.f.f.d. (PhD)<br>Q.Nazarqosimov - JDPU “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi |



| | |
|---|---|
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>M.Tilakova – Jizzax viloyat XXQT va MO instituti kafedra mudiri p.f.f.d. (PhD)<br>A.Meliboev– Jizzax viloyat XXQT va MO instituti kafedra mudiri pedagogika fanlari nomzodi |